



YURTIMIZDA HUNARMANDCHILIK TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

Olimjonova Farog'at Dilmurod qizi

Turizm ta'lim yo'nalishi talabasi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8245560>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-August 2023 yil

Ma'qullandi: 10-August 2023 yil

Nashr qilindi: 14-August 2023 yil

KEY WORDS

*hunarmandchilik, turizm, tur
hizmat, tur agent, rishton,
marg'ilon, kulol, atlas, adras,
sopol idishlar, innovatsiya,
Movarounnahr, savdo
munosabatlari,
hunarmandchilik festivallari*

ABSTRACT

*maqolada O'zbekistonning barcha hududlarida milliy
hunarmandchilik turizmini rivojlantirish, tarixiy
an'analari va shu orqali yurtimizda turistlar oqimini
ko'paytirish, hunarmandchilik tarixi, turistlar uchun
yaratilgan sharoitlar haqida fikrlar bayon etilgan.*

Bugungi globallashuv va yuksak texnologiyalar davrida hunarmandchilikka shunchaki o'tmish yodgorligi sifatida qaramay, uning tarixiy asoslarini o'rganish, davlat va jamiyat tomonidan keng qo'llab - quvvatlash dolzarb masalalardan biri hisoblanib, xalqaro doirada bu masalaga ilmiy va amaliy jihatdan yondashuv tubdan o'zgarmoqda. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda kichik doirada ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirish imkoniyatiga ega shaharlarni ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirishda hunarmandchilik alohida ahamiyatli soha sifatida, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotining mustahkamlanishiga hissa qo'shuvchi mahalliy maxsulotlar eksportini ko'paytirish manbai sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik va uni rivojlantirish bo'yicha yuksak salohiyatga ega bo'lib, milliy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hunarmandchilik turlarini saqlash, qayta tiklash, shuningdek, salohiyatli yoshlarni ko'proq jalb qilib, nafaqat bu sohaning davomchilarini shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bu haqda so'z yuritganda, aytish lozimki, biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q.

Qadimda Movarounnahr deb atalgan O'zbekiston bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakatimiz har sohada o'zining imkoniyatlarini jahon maydonida namoyish qilmoqda. Va bular orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti, aholi yashash tarzida qolaversa qolgan barcha sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Va iqtisodiyotimizga

kata foyda keltirmoqda. Hozirgi vaqtda butun dunyoda, shuningdek O'zbekistonda ham iqtisodiyotning noishlabchiqarish, xususan turizm sohasiga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf - odatlari, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizm industriyasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8%-10% gacha boradi. Bu turizm sohasining qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunisi qiziqki, turizm rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi. O'zbekiston yangi XXI asrga shaxdam qadamlar bilan kirib keldi. XXI asr turizm va sayyohlik asri bo'ladi deb bemalol ayta olamiz. XXI asrda turizm o'zining salmoqli hissasi bilan respublika budjetida valyuta tushumini ta'minlaydi. Bunga respublikamizda har tomonlama imkoniyatlar va asoslar yetarli. Faqat zamonaviy turizmni rivojlantirish strategiyasini hayotga tatbiq etib, turizm sohasini yuqori pog'onalariga ko'tarish imkoniyatini yaratishimiz kerak. O'zbekistonda turizm yangi soha hisoblanmaydi, bu soha qadimdan mavjud bo'lgan, faqat bizning oldimizda turgan vazifa turizmni yangicha strategiya asosida rivojlantirish va istiqbolini belgilashdir. Hunarmandchilik - milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi bolib shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari keyin ham saqlangan. Kam rivojlangan mamlakatlarning xalq xo'jaligida hozir ham muhim o'rin egallaydi. Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilanaloqadorholda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, mi sgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, ke masozlik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab masalan: paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda (masalan, Rishtonda) kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p yerda yog'ochsozlik ma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo'ylarida kemasozlik va boshqalar rivoj topgan. Bugungi kunda hunarmandchilik faoliyatining rivojida har bir tarixiy bosqichning hissasini anglab yetish qiyin emas, shuningdek bu sohani rivojida har bir davrda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohatlar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik mavjud. Ayniqsa, buyuk sohibqiron Amir Temurning bu boradagi islohotlari bugungi kunda o'z aksini topmoqda. Buni ikki bosqichda, hunarmandchilik faoliyati turlarining amal qilishida hamda uni rivojlantirish doirasida olib borilayotgan keng ko'lamlislohotlarda ko'rish mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, faoliyat turi asosan qo'l mehnati yetakchiligida amal qilar ekan, milliy qadriyatlarimizning bir bo'lagi hisoblangan milliy taomlar, shirinliklar, turli xil

ziravorlar, quruq mevalar tayyorlash kabi turlarini ham hunarmandchilik yo'nalishlari tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu faoliyat turlari Shuningdek, o'zbek xalqining etnik tarkibini murakkabligi, har bir hudud bo'yicha uzoq yillar davomida amal qilib kelayotgan turmush tarzi, qadriyatlariga nisbatan xalqaro doirada e'tibor yuqori ekanligini inobatga olsak, ushbu yo'nalishlar yurtimizni yanada tarannum etish bilan birga turizm imkoniyatlarini kengaytirish, turli xil xalqaro doirada ko'rgazmali tadbirlar o'tkazishda ham qo'l keladi. Hozirda, mamlakatimiz, qonunchiligida nazarda tutilg hunarmandchilik yo'nalishlari va unda faoliyat olib borayotgan hunarmandlar sonini sarhisob qilsak, hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni o'zaro solishtirsak, uyushmaga a'zo hunarmandlarning asosan zamonaviy hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha bandligini ta'minlashdan iboratdir. Aksariyat badiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hunarmandchilik yo'nalishlarida qo'l mehnatining ustunligi, tabiiy xom-ashyoni yetishtirish va tayyorlash hamda yangi ijodiy ishlanmalarni tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarning vaqt talab qilishi mahsulot hajmining ortib borishinisekinlashtirib, uning tannarxini ortib borishiga sabab bo'ladi, shu bilan birga ushbu mahsulotlarning xaridorligi turli xil qadriyatlarimiz bilan bog'liq marosimlar va turizm imkoniyatlarining yuqoriligiga chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda ham xalq amaliy san'atini yo'nalishlarini qo'llab - quvvatlashda ushbu islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Aksariyat badiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hunarmandchilik yo'nalishlarida qo'l mehnatining ustunligi, tabiiy xom-ashyoni yetishtirish va tayyorlash hamda yangi ijodiy ishlanmalarni tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarning vaqt talab qilishi mahsulot hajmining ortib borishinisekinlashtirib, uning tannarxini ortib borishiga sabab bo'ladi, shu bilan birga ushbu mahsulotlarning xaridorligi turli xil qadriyatlarimiz bilan bog'liq marosimlar va turizm imkoniyatlarining yuqoriligiga chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda ham xalq amaliy san'atini yo'nalishlarini qo'llab - quvvatlashda ushbu islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu yilning 12-14-may kunlari Farg'ona viloyatining Rishton tumanida an'anaviy "Turkiy xalqlar hunarmandchiligi" forumi va uning doirasida "Kulollar sayli" milliy kulolchilik mahsulotlari ko'rgazma-savdosi bo'lib o'tdi. Unda Rossiya, Polsha, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston, Isroil va Turkiya kabi xorijiy mamlakatlardan soha mutaxassislari, olimlar va mohir hunarmandlar ishtirok etdi. "Kulollar sayli"da yurtimizdagi barcha kulolchilik maktablarining 150 nafardan ziyod usta kulollari, mashhur sulola vakillari va xalq ustalarining mahsulotlari ko'rgazmasi, mahorat darslari namoyish etildi. Tuman istirohat bog'ida tashkil etilgan tantanali ochilish marosimida Rishton kulolchiligi azaldan o'zining dizayni, tabiiy jozibasi va naqshlari bilan yetti iqlimda mashhur ekanligi ta'kidlab o'tildi. Keyingi yillarda soha rivojiga qaratilgan e'tibor va rag'bat tufayli tuman kulollari tomonidan tayyorlangan san'at asarlari AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Polsha, Shvesiya, Iroq, Eron, Misr kabi mamlakatlarda bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda namoyish etib kelinmoqda. Bugungi kunda kulolchilik yo'nalishida tumanda yuzlab mashhur sulolalar faoliyat ko'rsatmoqda,-deydi rishtonlik mashhur kulol Tohirjon Haydarov. Shuningdek, "Ustoz-shogird" an'anasi bo'yicha minglab yoshlar ushbu hunar sir-asrorlarini o'rganmoqda.

"Kulollar sayli" davomida O'zbekistonning turli hududlariga xos bo'lgan kulolchilik maktablari ustalari tomonidan mahorat darslari o'tkaziladi. O'z navbatida an'anaviy "Turkiy xalqlar hunarmandchiligi" forumi doirasida xorijdan tashrif buyurgan olimlar va soha mutaxassislari

bilan yuzma-yuz suhbatlar, kulolchilik maktablari ko'rgazmalari ham bo'lib o'tadi. "Xalqaro kulollar markazi" faoliyati bilan yaqindan tanishiladi. Shuningdek, "Rishton kulolchiligi: kecha, bugun, ertaga" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tomonidan nashr etilgan "An'anaviy Rishton kulolchiligi" kitob taqdimoti o'tkazilishi ham rejalashtirilgan.

Marg'ilon deganda, betakror tabiati, bog'-rog'lari, kamalakdek serjilo atlaslari, o'zligimiz ramziga aylanib ketgan rang-barang do'ppilari bilan yetti iqlimga mashhur bo'lgan go'zal bir makon ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bu zamin azal-azaldan odob-andishali va bag'ri keng, mehnatkash va tadbirkor, mehmondo'st xalqi, mohir hunarmandlari, usta bog'bonlari, xushovoz hofizlari bilan shuhrat qozonib keladi. Marg'ilon shahrida an'anaviy hunarmandchilik turlaridan biri bo'lgan ipakchilik ham mahorat bilan davom ettirilgan. Marg'ilon ipagini yanada ko'paytirish va undan katta daromad olish maqsadida hukumat Yangi Marg'ilon shahrida ipak qurti laboratoriyasi tashkil etadi. Ipakchilikni rivojlantirishda uning sifatini yaxshilash bo'yicha izlanishlar bilan bir qatorda mahalliy an'analardan keng foydalanilgan. Ipak yetishtirish va sifati bo'yicha Marg'ilon Farg'ona vodiysida birinchi o'rinda turardi. Marg'ilon ipak matolari Marsel (Fransiya), Istanbul (Turkiya) shaharlariga va Rossiyaning Yevropa qismiga olib ketilgan. Shuningdek, Marg'ilon ipakchilik mahsulotlariga Hindiston, Eron kabi mamlakatlarda ham talab katta edi. Atlas to'qish Marg'ilonida juda qadimdan rivojlanib, boshqa joylarga shu yerdan tarqalgan. Marg'ilonning shoyi matollari qadimda Eron, Misr, Yunoniston, Hindiston va Qoshg'ar savdogarlari tomonidan ko'plab xarid qilingan. XX asr boshlarida Marg'ilonida yuzlab atlas to'quvchi kosiblar bo'lgan. Matolar doimo savdo aloqalarida sotish, sotib olish, ayirboshlashda eng bozori chaqqon buyum bo'lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turizm kam chiqim orqali kata miqdorda foyda topishdir turizm orqali mamlakat iqtisodiyotining ko'rsatkichlari o'sishini, aholi turmush tarsi, valyuta aylanmasi yaxshilanishi, qolaversa chekka-chekka joylardagi holatlar yaxshilanishi va aholi turmush tarsi yaxshilanishi haqida yuqorida aytib o'tdik. Kata daromadga erishish uchun turizm juda ham qulay ayniqsa bizning sharoitda. Bunday xizmatlarni tashkillashtiradigan turfirmalar o'z faoliyatlarini yanada jadallashtirishlari lozim. buning uchun esa nafaqat turizm balki har qanday sanoatda ham mamlakat hukumati xususiy tarmoqlarini rivojlanishi yuzasidan rag'batlantirib borishi lozim. Turizm sohasida ham xususiy tarmoqlarni rivojlantirish, shu jumladan turistik firmalar faoliyatini takomillashtirish eng asosiy omillardan sanaladi. Turistik firmalarning rivojlantirishda asosan biznes rejalarni tuzishga katta ahamiyat beriladi. Chunki mukammal tuzilgan biznes- reja kelajakda ushbu firmaning yo'lini belgilab beradi. Turistik firmalar o'z mahsuloti rivojlanishining dastlabki bosqichida mashhur turizm maskanlari hukumatdan o'z faoliyatlarini yuritishga, transport va hokazolar kabi infratuzilmaning boshqa elementlariga egalik huquqi shaklida imtiyoz oladilar va ayni paytda hukumat ham turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida xususiy tarmoqlarga imtiyozlar beriladi. O'zbekiston turistik keng imkoniyatga ega ekanligi ammaga ma'lum, biz yoshlar bu imkoniyatdan foydalangan holda uning taraqqiyotiga hissa qo'shishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari
2. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori, 10.07.2020 yildagi 433-son O'zbekiston respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 15.01.2022 yildagi PF-52-son Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida.
4. A. Nig'matov., N. Shomurodova. yekologik turizm -- uangi fan sohasi // j.
5. <https://milliycha.uz/ru/atlas/>
6. <https://atlasfestival.com/>
7. <https://uzbekistan.travel/uz/o/rishtondagi-kulolchilik-markazi/>
8. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/06/24/kokand/>
9. <https://meros.uz/object/rishton-kulolchiligi>.
10. <https://yuz.uz/uz/news/rishtonda-kulolchilik-mahsulotlari-ishlab-chiqarishga-ixtisoslashtirilgan-markaz-ochildi>.

